



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA PARLAMENT NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY- HUQUQIY ASOSLARI

**Naurizbaeva Gulayim Sarsenbaevna**

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10629025>

Huquqiy davlatchilikni shakllantirish ko'plab muammolarni bartaraf etish bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab va davomli jarayondir. Bugungi kunga kelib oddiy bir haqiqatni inkor etish mumkin emas, ya'ni, davlat boshqaruvida keng vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emas. Bunda parlament xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda, qonunlarning ijro hokimiyati organlari tomonidan to'liq bajarilishini nazorat qilib borishi mamlakat taraqqiyotida muhim omildir.

O'zbekistonning qonun chiqaruvchi hokimiyati – Oliy Majlis parlament vazifasini bajaradi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham parlamentning huquqiy maqomi, uning vakolatlari va parlament nazorati Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasida “Joqarǵı Keńes” oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Shuningdek, “Joqari Keńes” Qoraqalpog'iston Respublikasida parlament nazoratini amalga oshiradi.

Xo'sh, parlament nazorati bu nima? Parlament nazorati bu – davlat hokimiyati, boshqaruv organlarining va mansabdor shaxslarining qonun hujjatlari va davlat dasturlarini ijro etishi ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatidir. Parlament nazoratini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 10-martda Parlament nazorati to'g'risida qonun qabul qilindi. 2016-yil 11-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Parlament nazorati to'g'risida”gi Qonunga imzo chekdi. Shundan so'ng, 2016-yil 28-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham shu mazmundagi qonun qabul qilindi.

“Parlament nazorati to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonuniga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi “Joqarǵı Keńes”i, uning qo'mitalari, komissiyalari,, siyosiy partiyalarining fraktsiyalari, deputatlari parlament nazoratini amalga oshiradi.






“Joqargı Keńes” muayyan bir shaklda parlament nazoratini amalga oshiradi va parlament nazorati shakllari sifatida quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Qoraqalpog’iston Respublikasi Davlat budjeti ijrosini ko’rib chiqish
2. Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma’ruzasini ko’rib chiqish;
3. “Joqargı Keńes” majlislarida hukumat a’zolarining, davlat organlari, xo’jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining o’z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish;
4. Qoraqalpog’iston Respublikasi prokurorining hisobotini eshitish;
5. Shahar va tuman hokimlarining o’z hududlarini rivojlantirish masalalari bo’yicha hisobotini eshitish;
6. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Qoraqalpog’istondagi bosh boshqarmasi raisining hisobotini eshitish;
7. Qonun hujjatlarining ijrosi holatini, huquqni qo’llash amaliyotini o’rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish.

Parlament nazoratini amalga oshirishda parlament nazorati sub’ektlari davlat organlarini zarur hujjatlar bilan tanishtirishi lozim. Shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning o’z vakilliklari doirasida amalga oshirayotgan faoliyatiga aralashish mumkin emas. Parlament nazorati sub’ektlari o’z faoliyatini amalga oshirish davomida ma’lumotlarni himoya qilish to’g’risidagi qonun hujjatlariga bo’ysunishi shart.

Parlament nazoratining natijalari to’g’risidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalari va “Joqargı Keńes”ning rasmiy veb-sahifalarida e’lon qilinishi mumkin.

Parlament nazoratini amalga oshirish to’g’risidagi qonun hujjatlarining qabul qilinishi – bu rivojlangan davlatlarning tajribalarining o’rganilganligini anglatadi. So’nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan jahon tendensiyalariga mos demokratik islohotlar jarayonida parlamentning, xususan parlament nazoratining davlat va jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyati yanada oshdi. Xususan, parlament nazoratini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi “Parlament nazorati to’g’risida”gi Qoraqalpog’iston Respublikasining Qonuni parlamentning nazorat funksiyasini yanada rivojlantirishga qaratilgan samarali tizim yaratilishida huquqiy asos bo’lib xizmat qilmoqda.





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Parlament nazorati to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjatlari
3. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – T.: TDYU, 2021.
4. Internet materiallari va rasmiy veb-saytlar.

